

2022-yil 5-avgust

Erkin Vohidov “So‘z latofati” kitobidan qatralar



Bir tomchi shabnamdek mo‘jaz va tiniq elchi degan sof o‘zbekcha turkiy so‘zda qancha xikmat bor!

Bizning shunday ulug‘ she‘riyatimiz bor, boylikda beqiyos ona tilimiz bor. Til millatning bosh belgisi hisoblanadi. Til bor — millat bor. Til yo‘q — millat yo‘q.

Xoliqi olam odamzodga idrok va So‘z aytish ne‘matini berib, uni barcha xilqatlaridan ustun yaratdi, jonli va jonsiz olamga hokim qildi. Olamni idrok qilgan inson So‘zni idrok qiladi. So‘zni idrok qilib olamni yanada teranroq idrok qiladi. So‘zning ildiziga yetgan kishi dunyoning tagiga yetgandek bahra topadi. Insoniyat tarixi so‘zlar qismatida yashirinib yotar ekan.

Olamni oxirigacha anglab bo‘lmagandek, So‘zning ham tubiga yetish imkonsizdir. Biz ko‘zlamoq, ko‘zikmoq, ko‘zguning ko‘zdan kelib chiqishini bilamiz, lekin ko‘z nima sababdan ko‘z deyilganini, nega uni birov ayn, birov chashm, birov glaz, birov ay deb atashini bilmaymiz. Nega toshni bizning ajdod tosh degan, boshqalar xajar, sang, kamen, stoun, shtayn ataganlar, bu yuzlab nomlar qayerdan kelgan, bilolmaymiz. Biz faqat farazlar qilamiz, asil haqiqat esa sirlar ummoni tubida yotibdi. Lekin baribir tinchimas idrok egasi bo‘lgan odamzod g‘avvos bo‘lib bu ummon ostini kezadi, kashfiyotlar qiladi va kashfiyotlari ham cheksizdir.

O'ylasam, izlanishlarimiz kabi g'ofilligimiz-da poyonsiz ekan. So'zni eshitamiz, so'zlashni qotiramiz, lekin So'z mag'zini chaqish aksar xayolimizga kelmaydi. Nega shunday deymiz, deya o'zimizga savol bermaymiz. Bu sinoat to'la olam bamisoli olisdagi yulduzlardek noayon qolaveradi. Uzum yedim, "uzum" dedim, bilsam, tokdan uzib yedim, degandek, o'z qo'lim bilan ishqomdan uzum uzaturib, bu so'zning uzmoqdan olingani xayolimga kelgan edi. Axir ungan narsani unum, g'uj o'sgan mevani g'ujum, jamiyat tuzilishini tuzum, cho'g'ning qo'ridan qolgan kulni qurum, deymiz. Og'izga solib yutganimiz yutum, tomoqdan qult etib o'tgan suv qultum bo'lganidek ishqomdan uzib yeganimiz uzum bo'ladi-da, deya o'z sodda kashfiyotimdan suyungan edim.

Ona tilimni muazzam va ulug' desam, e'zozlab boshga ko'tarsam, buning boisi o'zimmiki bo'lgani, jonimga yaqinligi uchun emas. Shunga ishonganim, iymon keltirganim uchun, mening ham bir-ikki tildan xabarim bo'lib, qiyoslash imkoniyatlarim borligi uchundir.

Kumush Abdusalamova tayyorladi

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/manaviyat/tilimiz-boyligimiz/erkin-vohidov-suz-latofati-kitobidan-qatralar>